

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA AGRESSIYANING NAMOYON BO'LISHI

Usmonova Nargiza Raximjonovna

Qo'qon universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressiyaning namoyon bo'lishi haqida batafsil tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar

agressiya, agressiv xatti harakat, kichik maktab yoshi, psixologik yondashuv,

Bugungi globallashtirish davrida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularni sog'lom psixik muvozanatga ega, sotsial adaptatsiyalashgan, axloqiy qadriyatlarga yo'nalgan, barkamol inson sifatida shakllantirishdan iboratdir. Bu vazifa ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida dolzarb sanaladi, chunki bu davr bolalarning shaxsiyati, emotsional dunyosi va ijtimoiy xulqi shakllanib borishining eng muhim bosqichi sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu, eng avvalo, yosh avlod qalbi va ongini ezigulik ruhida tarbiyalashdir."¹ Aynan shu yondashuvdan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida kuzatiladigan agressiv hatti-harakatlarni bartaraf etish va korreksiya qilish masalasi eng muhim psixologik-ijtimoiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda hamda bu fikrlarga yana qo'shimcha qiladigan bo'lsak yosh avlod, ayniqsa kichik maktab yoshidagi davrda hissiy madaniyat hamda zo'ravonlikdan yiroq bo'lgan ijtimoiy xulq shakllantirish eng asosiy zarurat sanaladi. Shu sababli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni maktab ta'limiga moslashtirish, ijtimoiy ko'nikmalar hamda emotsional holatlarini doimo nazorat qilish muhim sanaladi. Chunki bu qiyinchiliklar ortida bolada agressiv xatti harakatlari namoyon bo'la boshlaydi. Agressiv xatti harakatlari deb aytyapmiz eng avvalo bu termin haqida ma'lumotga ega bo'lmog'imiz lozim.

"Agressiya" (lotincha aggressiō - hujum) - bu odamlarning birgalikda yashashi me'yorlariga zid bo'lgan, hujum nishonlariga zarar etkazadigan, odamlarga jismoniy va ma'naviy zarar etkazadigan yoki ularga psixologik noqulaylik tug'diradigan motivatsiyalangan buzg'unchi xatti-harakatlardir. Agressivlik insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo'lgan psixologik

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – yangi imkoniyatlar mamlakati. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 18.

holat bo'lib, uni turli fanlar har xil nuqtai nazardan o'rgangan. Ilmiy adabiyotlarda bu holatning sabablari, shakllari va ijtimoiy oqibatlarini keng yoritilgan.

Psixanalitik yondashuv asoschisi Z. Freyd agressiyani insonning "id" darajasidagi tabiiy instinkt sifatida ko'rgan. Unga ko'ra, inson o'zining ichki energetik zo'riqishlarini tashqariga chiqarmasa, bu holat patologik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Z. Freyd agressiyani to'xtatib bo'lmaydigan, ichki biologik zarurat deb hisoblagan². A. Bandura esa agressiyani ijtimoiy o'rganilgan xatti-harakat deb tushuntiradi. Uning nazariyasiga ko'ra, bola o'z atrofidagi insonlarning agressiv xatti-harakatlarini kuzatish orqali o'rganadi va ularni o'z hayotida qo'llay boshlaydi³. Bu nazariya ayniqsa zamonaviy media muhit ta'sirini baholashda muhim asos bo'lmoqda.

Rossiyalik olimlar, xususan, R.S. Nemov, V.S. Muxina, D.B. Elkoninlar bolalarda agressiyaning rivojlanishi ko'proq ularning ijtimoiylashuvi va atrof-muhitdagi o'zgarishlarga moslasha olmasligi bilan bog'liq deb hisoblaydilar. Ularning tadqiqotlarida ijtimoiy stress, oiladagi nizolar, tarbiyadagi cheklovlar va salbiy tajribalar bola xulq-atvorida agressiv reaksiyalarni yuzaga keltirishi qayd etilgan. Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino asarlarida esa inson ruhiyatining uyg'unlikda bo'lishi asosiy tamoyil sifatida ko'rsatilgan. Ibn Sino esa "Tib qonunlari" asarida bolalar tarbiyasida hissiy muvozanatga alohida urg'u beradi. Bu fikrlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan⁴.

O'zbek olimlaridan R.X. Karimova, F. Sayfullayeva, G. Azizovalarning ilmiy ishlarida agressivlikning boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda ko'rinish shakllari, sabablari va ularni bartaraf etishning pedagogik va psixologik usullari tahlil qilingan. Masalan, R.X. Karimovanning "Bola psixologiyasi" asarida maktabga endi kirgan bolalarda hissiy muvozanat hali to'liq shakllanmaganligi sababli, ular muammolarga agressiv reaksiya ko'rsatishi mumkinligi aytiladi⁵. Mening amaliy kuzatishlarim asosida shuni aytishim mumkinki, har bir bola agressiv emas – lekin u o'ziga moslashmagan muhitga tushganida, shunday bo'lib ko'rinadi. Agressiya bolaning ichki "noroziligi"ning ifodasi sifatida paydo bo'ladi. Ba'zida bu faqat jismoniy emas, balki emotsional chaqiriqdir. O'quvchilar bilan ishlaganimda shuni kuzatdimki, ularni eshitish va tushunishga harakat qilinganda agressivlik darajasi kamayadi. Yana bir kuzatuvim: sinfdagi o'qituvchi yoki lider o'quvchining agressiv munosabati boshqa bolalarga ham o'tadi. Bu ijtimoiy "yuquvchanlik" effekti Bandura nazariyasi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli agressiyani tahlil qilishda nafaqat individual, balki sinf yoki maktab darajasidagi ijtimoiy

² Freud Z. Aggression Theory. – London: Penguin, 1995.

³ Bandura A. Social Learning Theory. – New York: General Learning Press, 1971.

⁴ Forobiy A.N. Fozil shahar ahli. – Toshkent: Adabiyot, 1995.

⁵ Karimova R.X. Bola psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – B. 103.

mexanizmlarni ham hisobga olish lozim. Inson agressiyasi ko'rinishlarining turli-tuman va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur xulq-atvorni o'rganishda

D.Bass tomonidan taklif etilgan konseptual ramkalar bilan chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo'ldi. Ya'ni uning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy verbal, aktiv-passiv va to'g'ri-egri. Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ko'plab agressiv harakatlarni ular asosida tushuntirish mumkin. Masalan, bir kishining ikkinchisi ustidan otib, pichoqlab yoki kaltaklab zo'ravonlik qilishi ham jismoniy, ham aktiv, ham to'g'ri shkala sifatida kvalifikatsiyalanishi mumkin. Afsuski, ayrim oilalarda o'z otasi yoki onasining mehr-oqibatidan bebahra o'sayotgan bolalar ham yo'q emas. Ba'zi oilalarda esa ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy psixologik iqlimda emasligi achinarli holdir, albatta. Aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyaga chaqirishda g'amxo'rlik, mehribonlik, sabr-toqat, mehr kabi xislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch bilan, ayniqsa jismoniy jazo usuli bilan ta'sir o'tkazadilar. O'z navbatida bu kabi xatti-harakatlar bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga zamin bo'ladi. Bolalarda agressiya bugungi kunda ko'p kuzatiladigan muammolardan biri hisoblanib kelmoqda. Agressivlik holati ko'pchilik kichik maktab yoshidagi bolalarga xos bo'lib ko'p hollarda agressiv xatti-harakat o'tish davrida ,inqiroz shaklida nomoyon bo'ladi. Bola yosh davrlar inqirozi paytida birmuncha qiyinchiliklarga ro'baro bo'lishi natijasida, unda agressiyaning ilk elementlari kuzatiladi. Insondagi agressivlik holati har qanday sabablarga bog'liq bo'lib, bu holatning psixodiagnostikasi, psixoprafilaktikasi bo'yicha horijda bir qancha tadqiqotishlari olib borilgan va ulardan amalyotchi psixologlarimiz foydalanib kelmoqda. Shunday bo'lsada, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va maktab psixologlari so'ngi paytlarda bolalarda agressivlik juda ko'payib ketayotganini ta'kidlab kelishadi. Bolalarda agressiv harakatlar ayniqsa, ularning o'tish davrida kuzatiladi. Odatda boladagi tushkinlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha e'tibor berilmaydi. Aslida bunday harakatlar bolada chuqur taassurot qoldirib, bolani rivojlanishi, mana shu o'tish davridan tezroq va yaxshi o'tishida birmuncha qiyinchiliklar tug'iladi.

R. Kratchfeld va N. Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan va birday maqbul ikki tavsifini keltirganlar. Birinchisi, xulq-atvorning zohiriy (tashqi) alomatlariga asoslanadi: «Agressiya – kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko'rinishidir». Ikkinchisi, odamning botiniy (niyatlari) bilan bog'liq, ya'ni insonni harakatga undovchi kuchlar bilan mushtarak: «Agressiya – boshqa bir insonga ziyon yetkazishni maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakatdir». Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monand tushunchalarga tayangan

ko'plab psixologlar agressiyani mavjudotning yashash uchun kurash bilan bog'liq uzviy xususiyati deb hisoblaydilar.

D.Bass taklif etgan ta'riflardan biriga ko'ra, boshqalar uchun xavf tug'diruvchi va ularga ziyon yetkazuvchi har qanday fe'l-atvor agressiyadir. Bir necha taniqli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan ikkinchi ta'rif esa quyidagicha: u yoki bunday harakatlar agressiya sifatida tasniflanishi uchun ular oxir-oqibat xafa qilish yoki haqoratlashga olib kelishi emas, balki xafa qilish va haqoratlarni maqsad qilib qo'yishi lozim dega fikrlarni aytib o'tgan, uchinchi nuqtai nazar esa X.Zilman tomonidan bildirilib, unga ko'ra, agressiya o'zgalarga tan jarohati va boshqa jarohatlar yetkazish demakdir. "Agressiya" tushunchasining talqinidagi kelishmovchiliklarga qaramay, ijtimoiy fanlar sohasidagi ko'plab mutaxassislar uning ikkinchi nuqtai nazarda bayon etilgan ma'nosiga ko'proq tayanadilar. Shunday qilib, hozirda ko'pchilik psixologlar tomonidan «agressiya – boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan fe'l-atvorning har qanday shakli», degan ta'rif qabul qilingan. U agressiyaga emotsiya, motiv yoki ko'rsatma sifatida emas, balki fe'l-atvor modeli sifatida qarashni taqozo etadi. Bu muhim fikr ko'plab chalkashliklarni tug'dirdi. "Agressiya" atamasi ko'p hollarda g'azab kabi salbiy his-tuyg'ular, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar, hatto irqiy va etnik xurofot bilan assotsiatsiyalanadi. Bu omillar natijasi zarar yetkazish bo'lgan fe'l-atvorda muhim rol o'ynashiga qaramay, ular bunday harakatlar uchun asos bo'la olmaydi. G'azab boshqalarga tajovuz qilish uchun aslo zaruriy shart hisoblanmaydi, agressiya o'ta sovuqqonlik holatida qancha yuzaga kelsa, shuncha o'ta emotsional hayajon holatida ham sodir etiladi. Shuningdek, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishi yoki ularni yoqtirishi umuman shart emas. Ko'pchilik odamlar o'zlari yoqtirgan insonlarga zulm o'tkazadilar. Inson agressiyasining turli-tumanligi va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur fe'l-atvorni o'rganishda asos tomonidan taklif etilgan konseptual chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo'ldi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida ham agressiya sabablari va kelib chiqishi haqida yuqorida ham gapirib o'tgan edik yana ulardan biri oilaviy muhit va tarbiya omillari ya'ni bunda oiladagi ziddiyatlar va nizolar ota-ona o'rtasidagi janjallar, oilada doimiy tushunmovchilik, bolaga nisbatan tajovuz yoki sovuqlik aggressiv xulq-atvorni kuchaytiradi. Parvarish va tarbiya uslubi esa haddan tashqari qattiq yoki aksincha, talabchan bo'lmagan tarbiya, ota-onaning bolaga nisbatan beparvoligi yoki o'zini tutishdagi noaniqlik agressiyani keltirib chiqarishi mumkin. Oiladagi model ya'ni bu bolalar o'zlari uchun namuna sifatida qaraydigan kattalar, ya'ni ota-ona, aka-uka, opa-singil yoki kattalar orasidagi agressiya ko'rgan bolalar bunday xatti-harakatlarni takrorlashi mumkin. Psixologik omillar ichki

psixologik holat bolaning ruhiy tushkunlik, qo'rquv, bezovtalik, o'zini past baholashi agressivlikka olib kelishi mumkin. Bosim va stress maktabdagi yoki oiladagi stresslar, do'stlar bilan kelishmovchilik, o'qishda qiynalishlar agressiv xatti-harakatlarni uyg'otishi mumkin. Ijtimoiy ko'nikmalarning yetishmasligi esa bolalar atrofdagi insonlar bilan to'g'ri muloqot qilishni o'rganmagan bo'lishi mumkin, natijada ular agressiyani vosita sifatida ishlatishadi. Nevrologik buzilishlar miya faoliyatidagi muammolar, masalan, diqqat yetishmovchilik, giperkaktivlik, ruhiy kasalliklar agressiv xatti-harakatlarga sabab bo'lishi mumkin. Gigiyena va sog'liq muammolari uyqu yetishmasligi, ovqatlanishdagi muammolar ham bolada bezovtalik va agressiya keltirib chiqaradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida agressiya ko'pincha bir nechta omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Bu sabablarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun ota-ona, o'qituvchi va psixologlarning hamkorligi muhimdir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya T. "Fan va texnologiyalar", 2012. 172 b
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi T. "Fan va texnologiyalar", 2008. 170 b
3. Islomova, D. (2018). *Maktab yoshidagi bolalarda agressiv xulq-atvorni kamaytirish metodlari*. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
4. Karimov, B. (2020). *Psixologiyada agressiya va uning oldini olish usullari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. Abdullayeva, M. (2021). "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional rivojlanishi," *Pedagogika jurnali*, 3(2), 45-52.
6. Kornilova N.G'. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi: Uslubiy qo'llanma. - T., 2008
7. Raximjonovna, U. N. (2023). O 'SMIR YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O 'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 232- 237.
8. Usmonova Nargiza Raximjonovna. (2024). TARBIYA FANINI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(6), 256-259. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/3792>
9. Usmonova Nargiza, & Ilyosjonov Shahboz. (2024). FRUSTRATSIYA HOLATIDAGI O'SMIRLARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TO'G'RI BAHOLASH. *Universitet tadqiqot bazasi*, 519-526. 8.

<https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/download/54/43/86> 9.
<http://conferences.neasmo.org.ua/ru/art/491>

10. Usmonova Nargiza, & Ibrohimova Muslimaxon. (2024). O'SMIRLIK DAVRIDAGI BOLALARNI KASBGA YO'NALTIRISH ORQALI ULARDA IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH. University Research Base, 559-563. Retrieved from.